

MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMINI ISLOH QILISH: KADRLAR SIYOSATI

*Sirdaryo viloyati Guliston shahar 18-sonli
Davlat DMTT direktor o'rinbosari
Jumabekova Dilnoza Mashrabjanovna*

Annotatsiya

Maqolda maktabgacha ta'lim tizimidagi muammolar ilmiy nazariy jihatdan tahlil qilinib asoslab berildi. Shuningdek tizimdagi mavjud muammolardan kadrlar borasida yechimini kutayotgan masallar ham o'rganildi va tahlil qilib berildi. Maqolada sohadagi mavjud muammolar atroflicha yoritildi. O'rganildi hamda ilmiy faktlar bilan qiyosiy ko'rinishda tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: Ilk Qadam, Pedagogik kompetensiya, Pedagogik mahorat, Ta'lim-tarbiya, Kadrlar muammosi.

REFORMING THE PRESCHOOL EDUCATION SYSTEM: PERSONNEL POLICY

Annotation

The article analyzes and substantiates the problems in the preschool education system from a scientific and theoretical perspective. Also, the problems in the system that are waiting for a solution in terms of personnel were studied and analyzed. The article comprehensively covers the existing problems in the field. They were studied and analyzed in a comparative manner with scientific facts.

Keywords: First Step, Pedagogical competence, Pedagogical skills, Education, Personnel problems.

Maktabgacha ta'lim sohasida misli ko'rilmagan o'zgarishlarni bugun har bir yurtdoshimiz sezib, kuzatib turibdi. Ta'limning poydevori hisoblangan maktabgacha ta'lim tizimiga davlat tomonidan bu qadar tizimli va bir-birini to'ldiruvchi e'tibor hamda amaliy yordam kuzatilmagan, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Sohada yig'ilib qolgan muammolarni hal etish va 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarning to'laqonli ta'lim-tarbiya olishini ta'minlash masalasi davlatimiz rahbari tomonidan kechiktirib bo'lmaz vazifa sifatida ilgari surildi. Sababi bog'chalar ta'lim tashkiloti vazifasini bajarish o'rniga ota-ona ishda bo'lgan vaqtda bolaga qarab turadigan tashkilotga aylanib qolgani, qamrovning pastligi, binolarning ta'mirtalabligi, boshqa maqsadlarda ishlatilgani, metodik jihatdan to'liq ta'minlanmagani, pedagoglar ijtimoiy himoyasi va maoshining pastligi kabi kompleks muammolarni hal etish

kechiktirib bo'lmaz masala edi. Keyingi 20 yil davomida davlat tasarrufidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni 45 foizga kamaygani, 2,45 million boladan 818 ming nafarigina bog'chalarga qamrab olingani bu fikrlar isboti bo'la oladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari infratuzilmasi va moddiy-texnik bazasining yaroqsiz holati bolalarni maktabgacha ta'lim bilan to'liq qamrab olishni ta'minlashga imkon bermasdi.

Ayrim mutasaddilarning sustkashligi tufayli sohani rivojlantirish bo'yicha belgilangan ishlar vaqtida bajarilmagani, nodavlat bolalar bog'chasini ochish borasidagi harakatlar paysalga solingani, joylardagi bog'chalarda qurilish ishlari to'liq yakuniga yetkazilmagani kabi kamchiliklar o'z ortidan uzluksiz xatoliklarni ergashtirib kelardi. O'rganish shuni ko'rsatdiki, maktabgacha ta'limni boshqarishning amaldagi tizimi mavjud muammolarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etish, shuningdek, mazkur sohani yanada rivojlantirish uchun innovatsion qarorlarni ishlab chiqish va joriy etish imkonini bermay qolgan edi.

2017-yil 16-avgust kuni bo'lib o'tgan yig'ilish maktabgacha ta'lim tizimi tarixida qoladigan yig'ilish bo'ldi. Shu kuni mamlakatimiz Prezidenti davlat milliy genofondini mustahkamlash borasida gapirib, ta'limning ilk bosqichini rivojlantirishning ko'plab yo'nalishlarini belgilab berdi. Xususan, maktabgacha ta'lim tizimini tarkibiy jihatdan tubdan isloh qilish, mazkur tashkilotlarga bolalarni to'la qamrab olish bo'yicha muhim vazifalar qo'yildi. Hayotimizda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan ta'lim-tarbiya tizimi haqida gapirganda, Abdulla Avloniy bobomizning dono fikrlarini takror va takror aytishga to'g'ri keladi: ta'lim-tarbiya — biz uchun hayot-mamot masalasidir, — dedi Prezident. Qaysi sohani olmaylik, biz zamonaviy yetuk kadrlarni tarbiyalamasdan turib biror-bir o'zgarishga, farovon hayotga erisha olmaymiz. Bunday kadrlarni, millatning sog'lom genofondini tayyorlash, avvalo, maktabgacha ta'lim tizimidan boshlanadi.

Bog'cha tarbiyasini olgan bola bilan bog'chaga bormagan bolani solishtirganda, ularning fikrlash darajasi o'rtasida yer bilan osmoncha farq borligini sezish qiyin emas.

Shuning uchun ham maktabgacha ta'lim tizimini qayta ko'rib chiqish masalasini davlat siyosati darajasiga ko'tarildi, bu borada katta ishlar qilinmoqda. Agar shu ishni har tomonlama puxta o'ylab amalga oshirmasak, butun ta'lim tizimida sifat o'zgarishiga erishishimiz, ta'limning uzluksizligini ta'minlashimiz qiyin bo'ladi, — deya ta'kidladi Shavkat Mirziyoyev.

Yuqoridagi ayrimlarinigina sanaganimiz boshi bor-u oxiri ko'rinmay qolgan muammolarni bartaraf etish uchun birinchi qadam sifatida O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi tashkil etildi. Maktabgacha ta'lim tizimini isloh qilishdagi mavjud muammolarni bartaraf etish maqsadida qabul qilingan Prezident qarorida keng ko'lamli tadbirlarni amalga oshirish ko'zda tutildi. Maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan yagona davlat siyosatini amalga oshirish, tizimni

tarkibiy jihatdan tubdan isloh qilish, boshqaruv tuzilmasini tashkil etish choralari belgilandi.

Bugun maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi maktabgacha ta'lim sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlari davlat va nodavlat tarmog'ini kengaytirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, maktabgacha ta'lim tashkilotlariga bolalarni qamrab olishni keskin oshirish, ta'lim-tarbiya jarayonlariga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish orqali bolalarni intellektual, ma'naviy-estetik, jismoniy rivojlantirish hamda ularni maktabga tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash vazifalari qo'yildi, — deydi Maktabgacha ta'lim vaziri Agrepina Shin.

Har qanday ta'limning asosi — metodika, jumladan, maktabgacha ta'limniki ham. Maktabgacha ta'limni sifat bosqichiga ko'tarishda yangi ta'lim metodlari, innovatsion texnologiyalarning ahamiyati katta. Sababi MTTning moddiy-texnik bazasi yuqori bo'lsa-yu, tarbiyachi bola bilan ishlamasa, unga har kuni yangi ma'lumotlarni o'rgatmasa, hamma qilingan harakatlar natijasi nolga tenglashib qoladi. Sohadagi mutaxassislar mahoratini oshirish, ularga zaruriy metodik ko'mak berish maqsadida Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlari va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti tashkil etildi.

Maktabgacha ta'lim sohasiga ixtisoslashgan kadrlar tayyorlash masalasiga alohida e'tibor qaratildi. Qabul qilinayotgan barcha-barcha qarorlarni amalga oshiradigan, farzandlarimizga eng zarur hayotiy tushuncha va ko'nikmalarni o'rgatadigan yuqori malakali tarbiyachilarni tayyorlash masalasi kun tartibiga chiqdi. Bu sohada zamonaviy talablarga javob beradigan ilg'or pedagogik usul va uslublarni ishlab chiqish, o'quv va o'quv-metodik adabiyotlarning yangi avlodini yaratish va nashr etish ham g'oyat dolzarb vazifa edi. O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari va "Ilk Qadam" maktabgacha ta'lim tashkilotining Davlat o'quv dasturi qabul qilindi. Endilikda zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkilotining tarbiyachilari bolalarni erkin qo'ygan holda faollik markazlarida o'yin mashg'ulotlari orqali yangi ma'lumotlarni o'rgatmoqda.

Maktabgacha ta'lim tizimida oliy ma'lumotli mutaxassislarga ehtiyoj esa pedagogika universitetlarida maktabgacha ta'lim yo'nalishiga qabul kvotalarining oshirilishi va nomutaxassis kadrlarni qayta tayyorlovdan o'tkazish evaziga to'ldirilmoqda. Ilg'or xorijiy tajribalar asosida maktabgacha ta'lim tizimidagi pedagog kadrlar malakasini oshirish bo'yicha o'quv-reja va dasturlarni takomillashtirish, oliy ta'lim tashkilotlari maxsus sirtqi bo'limlarining "Maktabgacha ta'lim" yo'nalishi bo'yicha 2018—2026-yillar uchun kvotalar ajratish masalasiga e'tibor qaratildi.

Hozirgi zamon tarbiyachisi kasbiy mahoratini doimiy tarzda oshirib borishi, ilg'or pedagogik texnologiyalarning izchil metodlari mohiyatini to'liq anglashi va ulardan mashg'ulotlarida mohirona foydalanishi zarur. Ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni faol qo'llash, ta'lim samaradorligini oshirish, tahlil qilish va amaliyotga joriy etish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. Tarbiyalanuvchilarning ongi, dunyoqarashini o'stirish, ularni mashg'ulotlarda erkin fikrlaydigan erkin ishtirokchiga aylantirish nihoyatda muhimdir. Tarbiyachi mashg'ulotda boshqaruvchi, bolalar esa ishtirokchiga aylanmog'i lozim. Ana shu vazifani uddalashda innovatsion faoliyat ustunligi ko'p qirrali samara keltiradi. Maktabgacha ta'limda ko'proq bolalarning yoshi, fiziologik holatini hisobga olish lozimligini unutmaslik kerak. Oddiy, oson va kam vaqt sarflanadigan o'yin mashqlaridan foydalanib, faollik markazlarida ish olib borish yaxshi samara beradi. Ko'proq atrof-muhit bilan bog'lab o'tilgan mashg'ulotlar bolalar ongi, dunyoqarashini, erkin fikrlash, bayon etish qobiliyatlarini, mustaqil ishlash ko'nikmasini, ya'ni hayotiy kompetensiyasini rivojlantiradi.

Ochig'i, avvallari xususiy bog'cha degan nomning o'zi odamlarni biroz o'zidan itarardi. Chunki davlat bog'chasi bilan xususiy bog'cha narxi o'rtasidagi tafovut keskin farqlanar, bunday ta'lim tashkilotiga moddiy jihatdan baquvvat oilalar farzandlari borishi kerak degan tushuncha shakllangan edi. Bu qarash bugun biroz bo'lsa-da o'zgardi. Sababi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish borasida olib borilayotgan sa'y-harakatlar evaziga bugun yurtimizda nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni keskin ortdi. Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, yangi bog'chalar qurish bo'yicha davlat dasturi qabul qilinib, amalga oshirilmoqda. Bu esa tizimda sog'lom raqobatni shakllantirish hamda ta'lim xizmatlari turini ko'paytirishga xizmat qiladi. Investorlar tashkil etilayotgan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida davlat ta'lim talablariga, sanitariya-gigiyena va boshqa normalarga rioya qilish, kelishuv amal qilishining butun muddati davomida faoliyat yo'nalishini saqlab qolish, shuningdek, maktabgacha ta'lim xizmatini ko'rsatish narxining maqbulligi va arzonligini ta'minlash uchun mas'ul bo'lishi nazarda tutilmoqda. Bunda investorlarga preferensiyalar, shuningdek, imtiyozli kreditlar taqdim etilmoqda.

Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi va uning tizimidagi tashkilotlarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash hamda nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi qaroriga ko'ra bo'sh turgan binolar nol qiymatda tadbirkorlarga berildi, davlat-xususiy sheriklik (DXSH) shartlarida tashkil etilgan nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun qator soliq imtiyozlari nazarda tutildi. Xususan, nodavlat MTT faoliyat ko'rsatishni boshlagan paytdan boshlab 10 yil muddatga barcha turdagi soliqlar va davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy ajratmalardan, DXSH to'g'risida

bitim tuzilgan kundan boshlab 2 yil muddatga — tasdiqlanadigan ro'yxatlar bo'yicha olib kelinadigan asbob-uskunalar, inventar, o'quv qo'llanmalari va o'yin zonalari uchun bojxona to'lovlaridan ozod etildi. Davlat-xususiy sherikchilik shartlari asosida faoliyat yuritadigan nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlariga O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'laridan subsidiyalar ajratilishi belgilandi. Bular narx siyosatiga ta'sir etmasdan qolmaydi, albatta.

Shu o'rinda savol tug'iladi: davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari quvvati bolalar soniga nisbatan kam bo'lganda, yechimni nimada ko'rish mumkin? Vazirlar Mahkamasining "Bolalarni boshlang'ich ta'limga majburiy bir yillik tayyorlashga bosqichma-bosqich o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida 2018-2019-o'quv yilidan boshlab Qoraqalpog'iston Respublikasi, Farg'ona viloyati va poytaxtimizning ayrim tumanlarida bolalarni boshlang'ich ta'limga majburiy bepul bir yillik tayyorlashni joriy etish tajriba loyihasi amalga oshirildi. Loyihani amalga oshirish uchun jami 494 ta guruh tashkil etildi. Tajriba guruhlari maktabgacha ta'lim tashkilotlariga bormaydigan bolalarga maktabgacha ta'lim va tarbiya olishda yordam berish, buning uchun zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida tashkil etildi. Guruhlar davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari, maktabgacha ta'lim sohasida nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatuvchi yuridik shaxslarning negizida ochildi. Tajriba guruhlari maktabgacha ta'limga qo'yiladigan davlat tomonidan belgilangan talablarga muvofiq bolalarni tarbiyalaydi va maktabga tayyorlaydi. Bunda bolalarning o'ziga xos xususiyatlari, albatta, hisobga olinadi. Tajriba guruhlari 5 yoshdan oshgan maktabgacha ta'lim tashkilotlariga bormayotgan bolalar qabul qilinadi. Boshlang'ich ta'limga majburiy yillik tayyorgarlikdan o'tgan bolalarga davlat namunasidagi sertifikat beriladi.

Maktabgacha ta'limning ushbu muqobil shakli bog'chaga bormagan bolani birinchi sinfga borganida tengdoshlaridan kam bo'lmagan darajada faollashtirishni ko'zlaydigan dastur asosida bolalarni maktab ta'limiga tayyorlaydi. Demak, bu barcha ota-onalar uchun qulay va davlat tomonidan himoyalangan ta'lim shaklidir.

Tizimdagi eng og'riqli masalalardan biri bu ovqatlanish bilan bog'liqligi hech kimga sir emas. Bu yo'nalishda vazirlik tomonidan bolalar haqiga xiyonat qiladiganlarga qarshi keskin chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgani ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali kunda-kunora tasdig'ini topmoqda. Bunday munofiqlarni nafaqat qonun oldida jazolash, balki aholi o'rtasida ham obro'sizlantirish, bunday maqsaddagi rahbarlar sonini keskin kamaytirishga xizmat qiladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlariga tadbirkorlik subyektlari bilan tegishli talablarga javob beradigan oziq-ovqat mahsulotlari va tayyor ovqatlarni yetkazib berish to'g'risida to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar tuzishga eksperiment tariqasida ruxsat berildi. Mazkur eksperiment yakunlari bo'yicha respublikaning boshqa hududlarida davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini va maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ovqatlanishni tashkil

etish tartibi joriy etildi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tadbirkorlik subyektlari bilan sifat talablariga va sanitariya-gigiyena me'yorlariga javob beradigan oziq-ovqat mahsulotlari va tayyor ovqatlarni yetkazib berish bo'yicha to'g'ridan to'g'ri shartnomalar tuzish ishlari sinov tariqasida amalga oshirish belgilangan. Hududdagi MTTlarda autsorsing xizmati asosida tarbiyalanuvchilarni ovqatlantirishni yo'lga qo'yganimizda tadbirkor tashkilot oshxonasini ijaraga olib, sifatli va xavfsizligi ta'minlangan oziq-ovqat mahsulotlaridan sanitariya-gigiyena qoidalariga to'liq rioya qilgan holda taomlar tayyorlayotgani, yarimtayyor va tayyor mahsulotlarni yetkazib berayotganiga guvoh bo'ldik. Shuningdek, har bir bolaga individual yondashuv ularning jamoat joyida ovqatlanish madaniyatini shakllantiradi. Alohida oshxonalarni tashkil etish guruh xonalarining tozaligini saqlaydi. Tashkilot xodimlarining e'tibori bolalarning ta'lim-tarbiyasiga qaratiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari xodimlarini moddiy rag'batlantirishning past darajasi bolalarni tarbiyalash va har tomonlama rivojlantirish masalalarini professional darajada hal etishga qodir malakali mutaxassislar bilan ta'minlay olmaslik holatiga sabab bo'lar edi. Masalan, 1993-yilga qadar maktabgacha ta'lim tashkilotlarining tarbiyachisi va umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinf o'qituvchisi mehnatiga haq to'lash miqdori bir xil bo'lgan bo'lsa, hukumatning alohida qarorlari bilan hozirga qadar umumta'lim maktablari pedagog xodimlari mehnatiga haq to'lash miqdorlari bir necha marta oshirilgani holda maktabgacha ta'lim tashkilotlari xodimlarining ish haqi miqdorlari o'zgarishsiz qoldirilganligi hisobiga ularning o'rtacha ish haqi miqdori umumta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisiga nisbatan 60 foizni tashkil etgan, xolos. Bu esa, o'z navbatida, maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlari iste'dodi, kasb mahorati va ish faoliyatida shaxsiy hissasi namoyon bo'lmasligiga hamda tashkilotning pedagogik salohiyatini pasaytirishga olib kelgan. Shu sabab maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, xodimlarning mehnatiga haq to'lash va moddiy rag'batlantirishning munosib shart-sharoitlarini yaratish, yuqori malakali kadrlarni, shu jumladan, yosh bitiruvchilarni jalb etish, jamiyatda maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglarining nufuzini oshirish ustida ish olib borilmoqda.

2018-yil-sentabr oyidan boshlab oliy ma'lumotga ega bo'lgan tayyorlov guruhi (5 yoshdan 6-7 yoshgacha) tarbiyachisi mehnatiga haq to'lashning bazaviy tarif stavkalari miqdori umumta'lim maktablari boshlang'ich sinf o'qituvchilarining bazaviy tarif stavkalari miqdoriga tenglashtirilishi belgilab qo'yildi. Bundan tashqari, qaror bilan maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasini oshirish maqsadida hamda qishloq joylardagi aholi turmush darajasini inobatga olib, Qashqadaryo viloyatining Dehqonobod, Kasbi, Mirishkor, Qamashi, Chiroqchi, Nishon, Yakkabog' va G'uzor tumanlarida, Buxoro viloyatining Olot, Shofirkon, Qorako'l, Peshku va Romitan tumanlarida, Surxondaryo viloyatining

Qiziriq, Muzrabot, Oltinsoy, Boysun, Qumqo‘rg‘on, Uzun, Sariosiyo tumanlarida joylashgan davlat maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida 2023-yilning 1-yanvarigacha ota-onalar badal to‘lovi miqdorini 50 foizga kamaytirish nazarda tutildi.

Xulosa o‘rnida aytishi mumkinki, Hukumatimiz tomonidan maktabgacha ta‘lim tizimida mehnat qilayotgan xodimlarning moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlanishi hamda qishloq hududlarda bog‘chalar uchun ota-onalar to‘lovining keskin pasaytirilishi maktabgacha yoshdagi bolalarni bog‘chalarga qamrab olish darajasini oshirishga hamda maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida ta‘lim-tarbiya sifati va samaradorligini ta‘minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adbiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 mayda PQ-4312-sonli “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori.
2. «Ilk Qadam» davlat dasturi. - T., 2018.
3. Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat dasturlari. - T., 2018.